# JAMIYATNING AXBOROT RESURSLARI

**Tojimamatov Israiljon Nurmamatovich** [1]
[1] *Farg'ona davlat universiteti,*
israiltojimamatov@gmail.com
**Ismoilova Dilrabo Sidiqjonovna** [1]
[1] *Farg'ona davlat universiteti*
**Ibrohimova Manzura Islomjon qizi** [1]
[1] *Farg'ona davlat universiteti talabasi*
Ibrohimovamanzura268@gmail.com

**MAQOLA MALUMOTI** | **ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**
*Received:17.01.2025*
*Revised: 18.01.2025*
*Accepted:19.01.2025*

**KALIT SO'ZLAR:**
*Axborot resurslari, axborot texnologiyalari, ma'lumotlar bazasi, axborot tizimlari, axborot muhit, raqamli transformatsiya, axborot xavfsizligi, intellektual mulk, axborot ta'minoti, axborot almashinuvi, ma'lumotlar va bilimlar menejmenti, onlayn resurslar, axborot siyosati, yangi*

*Ushbu maqola jamiyatning axborot resurslarining roli va ahmiyatini tahlil qiladi. Axborot resurslari zamonaviy jamiyatda iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi. Maqolada axborot resurslarining turli shakllari, ularning jamiyatdagi funksiyalari va kommunikatsiyalarining rivojlanishi, jamiyatni modernizatsiya qilishdagi roli, axborot xavfsizligi va axborot huquqlari bilan bog'liq masalalar muhokama qilinadi. Maqola, jamiyatdagi axborot resurslarini boshqarishning samarali usullarini, shu jumladan axborot infratuzilmasini shakllantirish va axborot madaniyatini rivojlantirishga doir tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.*

*axborot texnologiyalari, axborotning ijtimoiy roli.*

**KIRISH.** Bugungi kunda axborot jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Axborot texnologiyalaring tezkor rivojlanishi, internetning keng tarqalishi va electron resurslarning ko'payishi jamiyatda yangi kommunikatsiya shakllarini yaratib, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga ta'sirini kuchaytirmoqda. Shunday qilib, jamiyatning axborot resurslari qanday shakllanishi va ularning samarali ishlatilishi, global va local o'lchovlarda muhim rol o'ynaydi. Axborot resurslari –bu jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiluvchi barcha axborot manbalarining to'plamidir. Ular ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va taqdim etish uchun zarur bo'lgan barcha vositalarni o'z ichiga oladi. Axborot resurslariga kitoblar, jurnallar, ilmiy maqolalar, internet saytlar, electron ma'lumotlar bazalari, hukumatning rasmiy hujjatlari, statistic ma'lumotlar va boshqa ko'plab manbalar kiradi. Axborot resurslari jamiyatning barcha sohalarida katta ahamiyatga ega. Ularning yordamida odamlar o'z bilimlarini yangilab boradilar, yangi ma'lumotlarga ega bo'ladilar, turli sohalarda ilmiy tatqiqotlar olib boradilar va qarorlar qabul qilishda samarali ishlatadilar.

Ta'lim va ilm-fan: Axborot resurslari ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega. O'quvchilar va talabalar ilmiy ma'lumotlar va resurslar orqali o'z bilimlarini boyitib boradilar. Oliy ta'lim muassasalarida axborot resurslari ilmiy izlanishlar va yangiliklarni tarqatishda, ilmiy ishlanmalarni ommalashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Siyosat va boshqaruv: davlat idoralari va hukumatlar axborot resurslarini o'z faoliyatlarida samarali ishlatishadi. Axborot orqali siyosiy qarorlar qabul qilinadi, ijtimoiy muammolarni aniqlashda va ularni hal etishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyot: Iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri axborot resurslarining sifati va samarali ishlatilishidir. Korxonalar va kompaniyalar o'z faoliyatlarida raqamli resurslarni, statistik ma'lumotlarni va tahlilarni ishlatib, marketing, ishlab chiqarish va moliyaviy qarorlar qabul qilishda foydalidurlar.

Axborot resurslari va texnologiyalarining rivojlanishi kelajakda jamiyatda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Sun'iy intellect, katta ma'lumotlar (big data), blokcheyn va boshqa yangi texnologiyalar axborot resurslarining boshqaruvi va tahlilini yanada samarali qilishga

yordam beradi. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi va maxfiylikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilishi kerak bo'ladi.

Jamiyatning axborot resurslari uning rivojlanishi va kelajagi uchun muhim vosita hisoblanadi. Ularni to'plash, saqlash va samarali boshqarish jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida axborot resurslarini yanada rivojlantirish va himoya qilish jamiyat uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tojimamatov. I. N, Olimov. A. F., Khaydarova. O. T., & Tojiboyev. M. M (2023). CREATING A DATA SCIENCE ROADMAP AND ANALYSIS. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(23), 242-250.
2. Ne'matillayev. A. H., Abduqahhorov. I. I., & Tojimamatov. I. (2023). BIG DATA TEXNOLOGIYALARI VA UNING MUAMMOLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 19(1), 61-64.
3. Тожимаматов, И. Н. (2023). ЗАДАЧИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО АНАЛИЗА ДАННЫХ. PEDAGOG, 6(4), 75-84.
4. K. S. S. Rajasekaran, N. Balasubramanian. " A Survey of Video Compression Algorithms" – ACM Transactions on Embedded Computing Systems, Vol. 20, No. 5s, Article 76. Publication date: September 2021.
5. Tojimamatov. I. N., Topvoldiyeva. H., Karimova. N., & Inomova. G. (2023). GRAFIK MA'LUMOTLAR BAZASI. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(4), 75-84.